

**Karimova Shahnoza G'aybullayevna**

*Qarshi shahar Iqtisodiyot va Pedagogika universiteti Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi  
125-guruh talabasi*

**Kalit so'zlar:** *faollik, talabchanlik, stil, kreativlik, motivatsiya, traditsion metodlar, individual, temperament.*

Har birimiz yaxshi bilamizki, pedagogik faoliyatni olib borishda o'qituvchiga eng zarur bo'lgan narsalardan biri bu yaxshi malak, bilim, qobiliyatlar va ko'nikmalar zarurdir. Va bu narsalar haqida ko'plab adabiyotlar va kitoblarda aytilib, keltirib o'tilgan va buni hammasi ham bizga tushunarli emas. Shulardan bir nechtasi haqida aytib o'tadigan bo'lsam, birinchisi bu dars jarayonida o'qituvchiga xos bo'lgan xislatlardan biri bu xushmuomilalik. Xushmuomilalik deganda bu qaysi kasb egasi bo'lmasin o'qituvchimi yoki shifokormi, harbiymi farqi yo'q u kishi shu ish joyiga ko'tarinki kayfiyat bilan tabassum bilan kirib borsa, bu albatta atrofdagilarga ham manzur keladi. Va albatta dars berish jarayonida ham xushmuomilalik roli katta, va darsimizni samaradorligi oshishida ham juda katta ko'mak beradi. Keyingi faoliyatimiz bu faollik. O'qituvchi bu keng tasavvur qiladigan bo'lsak, bu bir batareyka. Batareykani asosiy vazifasi quvvatni ulashish va o'qituvchi xuddi shu holatda o'zining o'quvchilari bilan shu energiyasini ulashishi shart. Chunki dars paytida o'qituvchi o'zi faol bo'lmasa albatta bu narsani o'quvchilardan biz kuta olmaymiz. Agar o'qituvchi dars paytida faol bo'lsa bilimni qabul qilish jarayonida ham, o'quvchilarni o'zlashtirishda ham katta yordam beradi. Keyingisi bu talabchanlik. Talabchanlik deganimizda biz ozgina qattiqqo'llikni ham nazarda tutamiz, chunki albatta o'qituvchi faqat kulib, faqat xushmuomilalik bilan o'quvchilarga uncha jiddiy bo'lmagan holatda muomila qilsa albatta bu ularning o'zlashtirishida, o'zini tutishida va vazifalarini bajarishda o'z aksini bildiradi. Va talabchanlik bu asosiy komponentlardan biri. Agar o'qituvchi talabchan bo'lmasa, bilim olishda ham o'quvchilarda muammolar paydo bo'ladi. Yana bir pedagogik faoliyatlardan biri bu kuzatuvchanlik. Har bir o'qituvchining kuzatuvchanligi yuqori darajada bo'lishi shart. Chunki ba'zi bir o'quvchilar bir mavzuni tushunmasligi mumkin va uni aytolmasligi mumkin. Yoki bo'lmasa, qanaqadir muammolari bo'lishi mumkin o'quvchilarda. Yoki yozishda, o'qishda qiynalishi mumkin va bu har bir narsaga o'qituvchi diqqat-e'tibor bilan yondashishi kerak va albatta o'qituvchi har bir narsaga yechim topishi uchun birinchi u narsani topishi kerak. Keyingi komponentlardan biri bu- chidamlilik. Biz bilamizki, o'qituvchilik kasbi dunyo bo'yicha stressga duchor bo'lishlik bo'yicha kasblardan eng birinchi o'rinda yuqori

darajada turar ekan. Chunki o'qituvchi har xil odamlar bilan ishlaydi, bu degani sinfda 25 ta o'quvchi bo'lsa, o'qituvchi shu 25 xil xarakterga moslashuvchan bo'lishi shart. Har bir o'quvchining individual psixologik xususiyatidan kelib chiqqan holda har bir o'quvchining o'zining temperamenti, o'zining xarakteri o'zgacha bir olamdek bo'ladi. Va har bir olamning o'ziga xos xususiyatlar ham bo'ladi. Har bir o'quvchiga alohida yo'l topib, shu bilim berish jarayonida albatta chidamlilik judayam zarur faoliyat hisoblanadi. Keyingi faoliyatdan biri bu ijodkorlik. Bu yerda kreativlik tushunchasini ham aytishimiz mumkin. Hozirgi davr bu innovatsiyalar, yangi texnologiyalar davri bo'lganligi sabab odatiy bo'lgan milliy metodlarimiz hozir o'z samarasini ko'rsatmayabdi va albatta biz har bir narsada ijodiy yondashishimiz shart ekan va har bir o'zining stili bo'lishi kerak. Avvalo, o'z faoliyatini yangi boshlayotgan o'qituvchi birinchi navbatda o'z ustida ko'proq ishlashi shart. Izlanib, o'zining stilini yaratishga harakat qilib boshqalarnikiga o'xshamagan holda shu o'quvchilarning, atrofdagi odamlarning e'tiborini jalb qila olishi zarur. Yangi metodlarni o'ylab topishimizda ham kreativlik, ijodkorlikni katta ahamiyati bor. Yana bir narsani ta'kidlab o'tadigan bo'lsam, bu motivatsiya o'quvchilarni rag'batlantirish, shu motivatsiyani o'qituvchi bera olishi kerak. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ba'zi bir bolalar darsni tinglashni xohlashmaydi, qiziqishi bo'lmasligi mumkin. Bu holatlarda ota-onalar majburlab o'qitishadi. Ammo shu holatda ota-ona, o'qituvchi tomonidan o'quvchiga rag'batlantirish va motivatsiya berish natijasida shu darsga bo'lgan qiziqishi ham, diqqat-e'tibori ham oshib boradi. Bugungi aytib o'tgan har bir pedagogik faoliyatlar har bir o'qituvchining dars jarayonlarini muvaffaqiyatli va samarali o'tishida ko'mak beradi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

- 1)B.Ziyomammedov “Pedagogik mahorat asoslari”, T.;2019-yil.
- 2)Ochilova G. “Pedagogika”, T.;2015